

SUG'ORISH EGATLARI TUBINI ZICHLASH QURILMASI

Ishlanmaning tavsifi: Egat ko'ndalang kesimining turg'un profilini va loyihaviy nishabligini ta'minlovchi yangi texnik vosita, ya'ni egatning uzunligi bo'yicha uning tubida gruntning notekis zichlanishini yaratuvchi qurilma hisobiga egatning butun uzunligi bo'yicha tuproqni tekis namlash va sug'orish uchun suv sarfini qisqartirish. (Ts 00237682-014:2021)

Mazkur tashkilotning standarti paxta, makkajo'xori va 90 cm li qator oraliqlariga ekilgan chopiq qilindigan boshqa ekinlarning qator oraliqlariga ishlov berishda sug'orish egatlarining tubini zichlashga mo'ljallangan PUB-4 sug'orish egatlarining tubini zichlash qurilmasiga, shuningdek alohida yoki ehtiyot qismlar sifatida etkazib beriladigan qurilmaning detallari va yig'ma birliklariga ham taalluqlidir.

Sug'orish egatlarining tubini zichlash qator oraliqlariga ishlov berish (sug'orish egatlarini ochish) bilan bir vaqtda olib borilishi mumkin.

Moslama 1,4 klassidagi chopiq qilish traktori bilan agregatlashgan KXU kultivator-o'simlik oziqlantirgichga montaj qilinadi.

Qo'llanish ko'lami – O'zbekiston Respublikasi va boshqa paxta etishtiruvchi davlatlarning paxta etishtirish zonalari.

Iqlimga oid bajarilish turi GOST 15150 bo'yicha - U1, T1.

Ish unumdorligikamida 2,9-5,0 ga/soat; harakatning ishchi tezligi 4,0-7,0 km/soat;

Yoqilg'ining solishtirma sarflanishiko'pi bilan 11,5 kg/ga; Iste'mol qilish quvvati 70kV; Texnologik jarayon bajarilishining ishonchlilik koeffitsienti-0,98; Agregatning bir o'tishida paxta o'simligining shikastlanishiko'pi bilan 0,8 %; Ishlov berilayotgan qator oraliqlarining kengligi- 60; 90 sm.



1-rasm. Sug'orish egatlari tubini zichlash qurilmasining "BMKB-Agromash" AJ da tayyorlangan sanoat nusxasi va "TIQXMMI" MTU i laboratoriyasidagi asl nusxasi

Qo'llanilish sohasi: Qishloq xo'jaligi, O'rmon xo'jaligi, fermer xo'jaliklari vaqishloq xo'jaliklari klasterlarida qo'llaniladi.

Afzalliklari: Suv va energetik resurslarni 15 foizgacha tejash, g'o'zadan 18 foizgacha yuqori va sifatli hosil olishdan iborat bo'lib, chopiladigan va sug'oriladigan egatlab ekiladigan ekinlarni, xususan, g'o'zani etishtirish hamda parvarishlash uchun fermer xo'jaliklaridagi kultivatorlarga qo'shimcha ish quroli sifatida ishlatiladi.

Loyiha muallifi: «TIQXMMI» MTU

Atajanov A.U., Matyakubov B.SH.

Tel: +998909957265

e-mail: adiljanatajanov@mail.ru

